

Kreditning to'liq qiymati -  
\_\_\_% (foiz yozuv bilan)

**IKKILAMCHI BOZORDA UY-JOY XARID QILISH UCHUN IPOTEKA KREDITINI  
TAQDIM QILISH TO'G'RISIDA \_\_\_\_-\_\_\_\_-SONLI SHARTNOMA**

sh.

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ y.

Bundan buyon matnda – “Bank” deb yuritiluvchi “Tenge Bank” Aksiyadorlik tijorat banki nomidan 20\_\_\_\_ yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_ dagi «\_\_\_\_»-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi \_\_\_\_\_ bir tomondan va bundan buyon matnda – “Qarz oluvchi” deb yuritiluvchi fuqaro \_\_\_\_\_ ikkinchi tomondan hamda bundan buyon matnda – “Birgalikda qarz oluvchi” deb yuritiluvchi fuqaro \_\_\_\_\_ uchinchi tomondan, birgalikda esa – “Tomonlar” deb yuritiladi, Ipoteka kreditini taqdim etish to‘g‘risidagi ushbu Kredit shartnomasini (bundan buyon matnda – “Shartnoma” deb yuritiladi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

### **1. ASOSIY TUSHUNCHALAR**

**1.1.** Mazkur Shartnoma matnida uchraydigan barcha atamalar, agar matnda boshqacha ma'noga ega bo'lmasa, ushbu bo'limda keltirilgan ma'nolarni anglatadi:

1.1.1. **Ipoteka krediti** – jismoniy shaxsga (Qarz oluvchiga/Birgalikda qarz oluvchiga) ikkilamchi bozorda uy-joy xarid qilish uchun beriladigan uzoq muddatli kredit;

1.1.2. **Ipoteka krediti obyekti** – Bankning kredit mablag‘lari hisobidan xarid qilinadigan uy-joy;

1.1.3. **Dastlabki badal** – Qarz oluvchi tomonidan Bank hisobvarag‘iga o‘tkazilgan va xarid qilinadigan ipoteka krediti obyektining qisman to‘lovi hisoblangan pul mablag‘lari;

1.1.4. **Qarz oluvchi** – Bank bilan tuzilgan mazkur Shartnoma doirasida ikkilamchi bozordan ko‘p qavatli turar-joydan xonodon xarid qilish uchun ipoteka kreditini olgan va to‘lov qobiliyati yuzasidan tekshiruvdan o‘tgan jismoniy shaxs;

1.1.5. **Birgalikda qarz oluvchi** – kredit va unga hisoblangan foizlar bo‘yicha oylik to‘lovlarda ishtirok etuvchi, shuningdek, mazkur Shartnomaga ko‘ra kredit bo‘yicha solidar tartibda javobgar va to‘lovga qobiliyatli jismoniy shaxs;

1.1.6. **To‘lov qobiliyati** – Qarz oluvchining/Birgalikda qarz oluvchining jami daromadlari tahlili asosida kredit shartnomasi bo‘yicha o‘z to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish qobiliyati;

1.1.7. **To‘lov majburiyatları** – Qarz oluvchining/Birgalikda qarz oluvchining kredit shartnomasi bo‘yicha qarzlarni, unga hisoblab yozilgan foizlarni va boshqa to‘lovlarni (ipoteka kreditini rasmiylashtirish bo‘yicha xarajatlarni) mazkur Shartnomada belgilangan summada va muddatlarda so‘ndirish majburiyatları;

1.1.8. **Sotuvchi** – Oldi-sotdi shartnomasiga asosan ikkilamchi bozordan ko‘p qavatli turar-joydan xonodon (keyingi o‘rinlarda – “uy-joy”) egasi;

1.1.9. **Kredit ta'minoti** – mazkur Shartnoma shartlariga asosan Bankning kredit mablag‘lari hisobidan xarid qilinadigan uy-joy (ko‘chmas mulk);

1.1.10. **Kreditni taqdim qilish sanasi** – Bank tomonidan Qarz oluvchining ssuda hisobvarag‘idan Sotuvchining bank hisobvarag‘iga pul mablag‘lari o‘tkazilgan sana.

### **2. SHARTNOMA PREDMETI**

**2.1.** Bank Qarz oluvchiga/Birgalikda qarz oluvchiga ikkilamchi bozordan ko‘p qavatli turar-joydan xonodon xarid qilish maqsadida ipoteka kreditini (bundan buyon matnda – “Kredit”)

taqdim qiladi, Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi esa Bankka mazkur Shartnomalarida olingan kreditni qaytarish, kreditdan foydalanilganlik uchun foizlarni va boshqa to‘lovlarini to‘lash majburiyatini oladi.

### **3. KREDITNI TAQDIM QILISH SHARTLARI**

#### **3.1. Kredit quyidagi shartlarda taqdim qilinadi:**

3.1.1. Xarid qilinadigan uy-joyning umumiy narxi: \_\_\_\_\_ (summasi harflar bilan yoziladi \_\_\_\_\_ so‘m \_\_\_\_ tiyin) so‘m;

3.1.2. Kredit summasi: \_\_\_\_\_ (summasi harflar bilan yoziladi \_\_\_\_\_ so‘m \_\_\_\_ tiyin) so‘m;

3.1.3. Dastlabki badal – xarid qilinadigan uy-joy umumiy narxining \_\_\_\_% miqdori, bu \_\_\_\_\_ (summasi harflar bilan yoziladi \_\_\_\_\_ so‘m \_\_\_\_ tiyin) so‘mni tashkil etadi;

3.1.4. Kredit maqsadi va obyekti: 20\_\_\_\_ yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi «\_\_\_\_»-sonli shartnomaga asosan, \_\_\_\_\_ sh., \_\_\_\_\_ manzili bo‘yicha joylashgan ikkilamchi bozordan ko‘p qavatli turar-joydan xonardon xarid qilish;

3.1.5. Kreditlash muddati: \_\_\_\_ oy;

3.1.6. Kredit to‘lovingin so‘ngi sanasi: 20\_\_\_\_ yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_gacha;

3.1.7. Kredit qarzlarini so‘ndirish jadvalini hisoblash usuli: \_\_\_\_\_ to‘lovlardan orqali.

#### **3.2. Kredit bo‘yicha to‘lovlardan:**

##### **3.2.1. Foiz stavkalarini:**

a) asosiy qarz qoldig‘iga – yillik \_\_\_\_%;

b) asosiy qarzning to‘lov muddati o‘tgan qismi uchun – yillik \_\_\_\_%.

3.3. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan olingan kreditni hisobga qo‘yish uchun Bank Qarz oluvchiga tegishli hisobvaraqlar ochadi.

3.4. Kredit mablag‘lari Qarz oluvchi tomonidan Bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinganidan so‘ng 3 (uch) ish kuni mobaynida \_\_\_\_\_ (bankida) ochilgan Sotuvchining hisob-kitob hisobvarag‘iga (yoki \_\_\_\_\_ (bankida) emissiya qilingan \_\_\_\_\_-raqamli “PK” plastik kartasiga) mablag‘lar o‘tkaziladi:

- Uy-joyni oldi-sotdi shartnomasining notarial tasdiqlangan asl nusxasi (bank xodimlari tomonidan asl hujjatdan nusxa ko‘chiriladi);
- Garov (ipoteka) shartnomasining asl nusxasi;
- Garov (ipoteka) predmetini sug‘urtalash polisining asl nusxasi, bunda Bank naf oluvchi sifatida ko‘rsatiladi;
- Qarz oluvchining uy-joyga mulkiy egalik huquqini belgilaydigan hujjatlar.

3.5. Belgilangan tartibda to‘liq rasmiylashtirilganidan so‘ng Bankda ochilgan Qarz oluvchining ssuda hisobvarag‘idan pul mablag‘lari Sotuvchining hisobvarag‘iga o‘tkazilgan va mazkur Shartnomaning 5-bo‘limiga muvofiq kredit qaytarilishini, to‘lov qobiliyatini, qaytarish kafolatlari ishonchlilagini va mazkur Shartnomada bo‘yicha boshqa shartlar bajarilishini belgilaydigan hujjat Bank tomonidan olingan paytdan e’tiboran kredit taqdim qilingan hisoblanadi hamda Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan butun qarz summasi va kredit bo‘yicha barcha turlardagi hisoblab yozilgan foizlar so‘ndirilgan kun – kredit qaytarilgan hisoblanadi.

3.6. Kreditdan foydalanilganlik uchun foizlar kredit taqdim qilingan kundan e’tiboran kredit to‘liq so‘ndirilgungacha har kuni ish kuni oxirida ssuda qarzi qoldig‘iga va har bir oydagisi haqiqiy kunlar soniga hisoblab yoziladi.

### **4. KREDITNI SO‘NDIRISH SHARTLARI**

**4.1.** Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan asosiy qarz qismini, u bo'yicha hisoblab yozilgan foizlar summasini va mazkur Shartnoma bo'yicha boshqa to'lovlarni o'z ichiga oladigan har oylik to'lovlarning to'lanishi Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan yoki uning vakolat berilgan shaxsi tomonidan Bankning istalgan ofislarda, shuningdek mobil ilovalar, to'lov terminallari (infokioskalar), to'lov tizimlari (Click, Payme va h.k.) orqali, bank cassasi yoki boshqa banklar kassalari orqali bank o'tkazmalari orqali yoxud Bankda ochilgan Qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan tegishli summani chegirib olish orqali amalgalash oshirilishi mumkin.

**4.2.** Kredit bo'yicha foizlar har kuni asosiy qarz qoldig'iga hisoblab yoziladi. Foizlar 1 yil 365 kun usuli bilan hisoblanadi. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi kredit bo'yicha asosiy qarz summasini va u bo'yicha hisoblab yozilgan foizlarni har oyning 15-kunidan kechiktirilmagan holda mazkur Shartnomaga 1-sonli ilovasi, ya'ni kreditni so'ndirish jadvalida belgilangan miqdorlarda va muddatlarda so'ndirish majburiyatini oladi. Bunda, mazkur Shartnomaga 1-sonli ilovadagi kreditni so'ndirish jadvalida belgilangan kredit uchun to'lovga har oylik tartibida hisoblab yozilgan foizlar summasi yakuniy hisoblanmaydi va kreditning amalda berilgan sanasiga, asosiy qarzni muddatdan oldin so'ndirish yoki qisman so'ndirish summasiga, dam olish/ ish kunlari va bayram kunlariga bog'liq bo'ladi.

**4.3.** Mazkur Kredit Shartnomasi bo'yicha qarzlarni qisman muddatdan oldin so'ndirish Kredit shartnomasi bo'yicha Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining to'lovlari miqdori, hajmini va davriyiligini (muddatlarini) belgilash tartibining o'zgarishiga olib kelmaydi.

**4.4.** Mazkur Kredit Shartnomasi bo'yicha asosiy qarz qisman muddatdan oldin so'ndirilganda, asosiy qarzning qoldiq summasi muddatdan oldin so'ndirilgan summa chegirib olingen holda kamayadi, bunda har oylik to'lov asosiy qarz bo'yicha qisman so'ndirish summasiga kamaytiriladi, foizlar 4.2-bandga asosan hisoblab chiqiladi, Kredit taqdim qilingan muddat esa o'zgartirilmaydi.

**4.5.** Agar mazkur Shartnomaga 1-sonli ilovadagi hisoblangan Kreditni so'ndirish jadvalida nazarda tutilgan asosiy qarzni va hisoblangan foizlarni (yoki uning bir qismini) so'ndirish sanasi bank ish kuni bo'lmasa, bunday holatda so'ndirish ish kuni bo'lмагan kundan keyingi birinchi ish kunida har oylik to'lov va ish kuni bo'lмагan kunlar soni hajmida amalgalash oshiriladi/ o'tkaziladi.

**4.6.** Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi kredit bo'yicha asosiy qarz so'ndirilishini mazkur Shartnomaga 1-sonli ilovada nazarda tutilgan sanada amalgalash oshirmsa, Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi Bankka 3.2.1-bandga asosan yuqori stavka bo'yicha har bir to'lov muddati o'tgan kun uchun foizlar to'laydi.

**4.7.** Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining tegishli hisobvaraqlarida Qarz oluvchining qarzlarini so'ndirish uchun kerakli pul mablag'lari summasi bo'lмагan holatda, to'lanadigan summa: kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar to'lanadigan summa, yetarli bo'lмагan pul mablag'lari summasi qismi to'lov muddati o'tgan hisoblanadi.

**4.8.** Bankka butun kredit summasi qaytarilganidan, kreditdan foydalilanilganlik uchun foizlar, kredit o'z vaqtida so'ndirilmaganligi uchun muddati o'tgan foizlar, mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq kreditni so'ndirish sanasida belgilanadigan jarimlar to'langandan va qarz undiruvni bilan bog'liq xarajatlar qoplanganidan so'ng Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining majburiyatlari tegishlichcha va to'liq bajarilgan hisoblanadi.

**4.9.** Kreditni so'ndirish hisobvarag'iga tushgan yoki Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining Bankdagi har qanday hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari quyidagi ketma-ketlikka asosan qarzni so'ndirishga qaratiladi yoki o'tkaziladi:

- to'lov muddati o'tgan foizlar (hisoblangan, biroq o'z vaqtida to'lanmagan to'lanmagan);
- asosiy qarz bo'yicha to'lov muddati o'tgan qarzga hisoblangan foizlar;
- asosiy qarz bo'yicha to'lov muddati o'tgan qarz;
- kredit bo'yicha hisoblangan, biroq to'lov muddati o'tmagan foizlar;
- kredit bo'yicha asosiy qarz;

- Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchidan qarz undiruvini amalga oshirish bilan bog'liq Bank xarajatlari.

## 5. KREDIT QAYTARILISHINI TA'MINLASH

**5.1.** Mazkur Shartnomaga bo'yicha taqdim qilingan kredit 3.1.4-bandga asosan kredit mablag'lari hisobidan xarid qilinadigan ko'chmas mulk garovi (bundan buyon matnda – "Garov predmeti") bilan ta'minlanadi;

**5.2.** Garov predmeti kelishilgan garov narxi bo'yicha \_\_\_\_\_ (*summasi harflar bilan yoziladi\_\_\_\_\_ so'm \_\_\_\_tiyin*) so'm miqdorida qabul qilinadi, bu kredit summasining eng kamida \_\_\_\_\_ % miqdorini tashkil etadi.

**5.3.** Garovning muayyan shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tegishli ravishda rasmiylashtirilgan garov predmetini garovga qo'yish shartnomasi bilan belgilanadi.

Bunda, notarius tomonidan tasdiqlanishini va/yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishini talab qiladigan shartnomalar ular notarius tomonidan tasdiqlangan va/yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tuzilgan hisoblanadi.

**5.4.** Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi sug'urta kompaniyasi orqali Garov predmetini sug'ortalash va ushbu sug'urtani mazkur Shartnomaning butun amal qilish davrida ta'minlash majburiyatini oladi. Sug'urta hodisasi yuz berganda Bank naf oluvchi hisoblanadi.

**5.5.** Bank tomonidan bank mablag'lari hisobidan sug'urta premiyasi to'langan holatda, Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi 3 bank kuni mobaynida Bankka sug'urta premiyasi summasini to'lash majburiyatini oladi.

**5.6.** Kredit qaytarilishini ta'minlashga doir hujjatlarni tegishlicha rasmiylashtirish bo'yicha har qanday xarajatlarni Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi o'z zimmasiga oladi.

**5.7.** Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi majburiyatları ijrosining bir necha ta'minotlari mavjudligi bir-biriga zid kelmaydi, majburiyatlar ijrosini ta'minlashning har bir usuli mustaqil hisoblanadi va bir-biriga bog'liq bo'lmaydi. Undiruvni majburiyatlar ijrosini ta'minlash usullariga qaratish zarur bo'lgan hollarda, Bank tanlov huquqini saqlab qoladi, u o'z ixtiyoriga ko'ra, majburiyatlar ijrosi ta'minoti usullaridan istalgan biriga yoki barcha usullariga talabnomaga taqdim qilishi mumkin. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi kredit summasining eng kamida \_\_\_\_\_ % miqdorida kredit ta'minotini saqlash majburiyatini oladi. Bank quyidagi holatlarda Bankni qoniqtiradigan qo'shimcha ta'minotni talab qilishga haqli:

- Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashishi;
- likvidligi, qiymati va haqiqiyligi yo'qotilishi;
- bozor narxining sezilarli kamayishi;
- Shartnomaga bo'yicha taqdim qilinadigan kredit ta'minotining yo'q qilinishi, qisman yoki to'liq yo'qotilishi;
- Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnomaga bo'yicha majburiyatları bajarilmasligi xavfini oshiradigan boshqa omillarning paydo bo'lishi.

**5.8.** Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi mazkur Shartnomaga shartlarini bajarmagan vaziyat yuzaga kelgan va mazkur Shartnomaga bo'yicha belgilangan sanada mazkur Shartnomaga shartlariga muvofiq asosiy qarzni, foizlar va/yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni amalga oshirolmaydigan holatda, Bank undiruvni mazkur Shartnomaning 5.1-bandida qayd etilgan Garov predmetiga shartsiz va qaytarib olinmaydigan qaratish huquqini va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq taqdim qilingan kreditni muddatdan oldin undirish huquqini oladi.

**5.9.** Undiruv Garov predmetiga (predmetlariga) va/yoki uning (ularning) bir qismiga (qismlariga) qaratilgan holatda, Bank bir tomonlama tartibda, o'z ixtiyoriga ko'ra, birinchi navbatdagi undiruv obyektni tanlash yoxud undiruvni bir vaqtning o'zida Garov predmetiga (predmetlariga) qaratish huquqini o'zida saqlab qoladi. Undiruvning Garov predmeti obyektlaridan biriga va/yoki uning (ularning) bir qismiga (qismlariga) qaratilishi Bankni

undiruvni boshqa garov predmeti (predmetlari) obyektlariga va/yoki uning (ularning) bir qismiga (qismlariga) qaratishda ham cheklab qo'ymaydi.

**5.10.** Mazkur Shartnomaning 3.4-bandida nazarda tutilgan hujjatlar kredit shartnomasi imzolangan sanadan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirilmagan holda taqdim qilinishi kerak.

**5.11.** Kredit berilishi kredit qaytarilishi ta'minotini belgilaydigan hujjatlar belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirilgandan va Bank tomonidan olingenidan hamda mazkur Shartnoma bo'yicha boshqa dastlabki shartlar bajarilganidan so'ng amalga oshiriladi.

## 6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 6.1. Bank quyidagilarga haqli:

6.1.1. Qarz oluvchi tomonidan kredit qaytarilishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan holatda, unga kredit taqdim qilinishini to'liq yoki qisman rad etish;

6.1.2. mazkur Shartnomaning amal qilish muddati jarayonida tegishli monitoringni amalga oshirish: Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida uning to'lov qobiliyatini, kreditdan foydalanishini, taqdim qilingan ta'minotni tegishlicha saqlash, sug'urtalanish, ta'minot etarligi va likvidligi yuzasidan tekshirish. Bunday tekshiruvlarni o'tkazish muddatlari Bank tomonidan belgilanadi;

6.1.3. Bank quyidagi holatlarda Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchidan kreditning muddatdan oldin so'ndirilishini (hisoblab yozilgan foizlar hisobga olingen holda) va kelgusida berilishi to'xtatilishini talab qilishga haqli:

- a) Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha o'ziga qabul qilingan majburiyatlar buzilishi va/yoki bajarilmasligi va/yoki tegishlicha bajarilmasligi;
- b) Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi kredit mablag'laridan belgilangan maqsadda foydalanmasa;
- c) Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi kredit olish uchun Bankka kredit taqdim qilish to'g'risida qaror qabul qilish uchun hal qiluvchi hisoblangan masalalar bo'yicha yolg'on yoki to'liq bo'lмаган ma'lumotlarni taqdim qilgan bo'lsa;
- d) kreditni qaytarish ta'minotining yo'qotilishi yoki ta'minot narxining pasayishi;
- e) Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining mazkur Shartnomaning 6.1.2-bandida belgilangan Bank xodimlari tomonidan tegishli monitoring va bank tekshiruvi o'tkazilishini rad qilishi;
- f) mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq asosiy qarzni, foizlarni, komissiyalar va/yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni o'z vaqtida so'ndirmaslik;
- g) mazkur Shartnoma imzolangan sanadan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan so'ng Garov shartnomasi rasmiylashtirilmaganligi;
- h) Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan asosiy qarzni so'ndirish, foizlarni to'lash bo'yicha o'z majburiyatları bajarilmagan va/yoki tegishlicha bajarilmagan holatda, to'lov muddatlari kelganida, Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan, Bank Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining topshirig'isiz (akseptsiz tartibda) kerakli pul mablag'larini chegirib olish huquqini o'zida saqlab qoladi. Ushbu orqali Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi Bankka mazkur Shartnoma bo'yicha olinadigan tegishli summani Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan uning topshirig'isiz akseptsiz tartibda shartsiz va qaytarilmaydigan chegirib qolish huquqini beradi;
- i) mazkur Shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

6.1.4. Mazkur Shartnomaning 6.1.3-bandiga muvofiq, Bank talablari bajarilmagan holatda, Bankda undiruvni kreditni qaytarish ta'minotiga va mazkur Shartnoma shartlarida Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining boshqa mulkiga qaratish huquqi paydo bo'ladi.

6.1.5. Mazkur Shartnoma shartlariga va kreditni qaytarish ta'minotiga va Qarz

oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishiga tegishli ma'lumotlarni Kredit byurosiga va garov reestriga taqdim qilish.

6.1.6. Mazkur Shartnoma bo'yicha to'lanadigan summaning Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining Bankdagi barcha hisobvaraqlaridan, plastik kartalaridan va boshqa banklardagi bank hisobvaraqlaridan, shuningdek Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining har qanday valyuta hisobvaraqlaridan (chevirib olish sanasida Markaziy bankning valyutani sotish kursi bo'yicha konvertatsiya qilish orqali) akseptsiz tartibda chevirib olinishini amalga oshirish.

6.1.7. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi mazkur Shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran 30 kun mobaynida mazkur Shartnomaning 5-bo'limida qayd etilgan ta'minotni taqdim qilmagan bo'lsa, mazkur Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish, mo'ljallangan bekor qilish sanasigacha 5 kun oldin Qarz oluvchini oldindan xabardor qilish.

6.1.8. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatları bajarilganligi/ bajarilmaganligi to'g'risida ma'lumotlarni, mazkur Shartnoma bilan bog'liq boshqa axborotni, shuningdek Bankning axborot, reklama materiallari va tijorat takliflarini Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnomada ko'rsatilgan manzillar/ telefon raqamlari bo'yicha pochta jo'natmalari, elektron aloqa vositalari, SMS-xabarlar orqali yoki o'zgacha tarzda yuborish. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi yuborilgan xat-xabarlar uchinchi shaxslarga oshkor bo'lishi bilan bog'liq barcha xavflar uchun javobgar bo'ladi.

## **6.2. Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:**

6.2.1. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga mazkur Shartnomaning 5-bo'limida belgilangan kreditni rasmiylashtirish bo'yicha majburiyatlar bajarilgan paytdan e'tiboran mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlarda va tartibda kreditni taqdim qilish;

6.2.2. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan kredit to'liq so'ndirilganidan so'ng, Qarz oluvchining talabnomasiga ko'ra, garov ta'minoti predmetiga taqiqni olib tashlash uchun tegishli organlarga ma'lumotnomalar taqdim qilish.

## **6.3. Qarz oluvchi quyidagilarga haqli:**

6.3.1. mazkur Shartnomada nazarda tutilgan hajmlarda, muddatlarda va shartlarda kredit taqdim qilinishini talab qilish;

6.3.2. Shartnoma tuzilganidan so'ng, Bankni yozma ravishda xabardor qilgan holda, Shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran 2 kun mobaynida kredit pul mablag'lari berilgungacha kredit olishni bepul asosda rad qilish.

## **6.4. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi quyidagilarga haqli:**

6.4.1. kreditdan foydalanish holati to'g'risida axborot olish;

6.4.2. navbatdagi va muddati o'tgan to'lovlar to'g'risida xabardor bo'lish bo'yicha Bank elektron servislaridan foydalanish;

6.4.3. kredit bo'yicha qarzni to'liq miqdorda yoki qisman muddatdan oldin so'ndirish, bunda Bank 4-bo'limga asosan, 1-sonli ilova bo'yicha amaldagi kreditni so'ndirish jadvali qayta hisob-kitob qilinishini bajarish majburiyatini olmaydi;

6.4.4. o'z ixtiyoriga ko'ra, mazkur Shartnoma bo'yicha ta'minot sifatida taqdim qilinadigan mol-mulkni mustaqil baholash kompaniyasini, shuningdek ushbu mol-mulkni sug'ortalash uchun sug'urta kompaniyasini tanlash;

6.4.5. kreditni so'ndirish uchun mablag'larni bank cassasi yoki boshqa banklar cassalari orqali bank o'tkazmasini amalga oshirish orqali mobil ilovalar, to'lov terminallari (infokioskalar), to'lov tizimlari (Click, Payme va h.k.) orqali yuborish.

## **6.5. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi quyidagi majburiyatlarni oladi:**

6.5.1. mazkur Shartnoma shartlarida nazarda tutilgan to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish;

6.5.2. mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlar ijrosini ta'minlaydigan shartnoma(lar) bilan

nazarda tutilgan vazifalarni tegishli ravishda bajarish. Ta'minot yo'qotilgan yoki bozor narxi pasaygan holatda, Qarz oluvchi ta'minotni tiklash yoki teng qiymatli ta'minotni taqdim qilish majburiyatini oladi;

6.5.3. mazkur Shartnoma shartlariga asosan muddati o'tgan to'lovlar to'g'risida Bankdan xabarnoma/talabnama olingen holatda, 5 kalendar kuni mobaynida qarz bo'yicha to'lovni amalga oshirish: barcha muddati o'tgan foizlar summasini, muddati o'tgan asosiy qarz summasini, shuningdek Bankning boshqa komissiya haqlarini to'lash;

6.5.4. turar-joy manzili, ish joyi, familiyasi yoki ism-sharifi o'zgarganligi hamda Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilishiga ta'sir etishi mumkin bo'lган boshqa vaziyatlar to'g'risida Bankka 3 kalendar kuni mobaynida xabar berish;

6.5.5. Bank tomonidan kredit beriladigan paytgacha 3-bo'limga asosan boshlang'ich badalni to'lash;

6.5.6. Bankka mazkur Shartnoma doirasida kredit taqdim qilish butun muddatini qoplaydigan amal qilish muddatli tegishli ravishda rasmiylashtirilgan garov predmetini sug'ortalash polisini taqdim qilish;

6.5.7. kredit bo'yicha asosiy qarzni muddatdan oldin so'ndirish uchun mablag'lar mobil ilovalar yoki to'lov tizimlari (Click, Payme va h.k.), shuningdek bank o'tkazmasi yoki bank cassasi orqali yuborilgan holatda, Qarz oluvchi Bankni kreditni so'ndirish hisobvarag'iga to'lov amalga oshirilganidan so'ng qarz so'ndirilganligi to'g'risida xabardor qilishi shart;

6.5.8. mazkur Shartnomaning amal qilish muddati mobaynida bankning yozma shakldagi roziligesiz uchinchi shaxslar oldida zimmasiga jiddiy majburiyatlar olmaslik, ya'ni mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlar o'z vaqtida bajarilishiga ta'sir etishi mumkin bo'lган boshqa kreditorlardan kreditlar va qarzlar olmaslik, boshqa shaxslarga qarzlar bermaslik, uchinchi shaxslar kreditorlari oldida kafil bo'lmaslik;

6.5.9. kreditdan mazkur Shartnomaning 3.1.4-bandida belgilangan maqsadlarda foydalanish va Bankka kredit maqsadlariga asosan mulkni egalikka olish bo'yicha dastlabki hujjatlarni taqdim qilish;

6.5.10. mazkur Shartnomaning 5-bo'limiga asosan Bank tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarni qoplash.

## 7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Bank Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan Kredit bo'yicha so'ndirilmagan mablag'lar qaytarilishini, barcha hisoblab yozilgan foizlar to'lanishini, shuningdek Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan Bankka yetkazilgan barcha zararlar va chiqimlar o'rni to'ldirilishini talab qilishga haqli.

7.2. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi tomonidan talabnomada belgilangan muddatdan e'tiboran 30 kun mobaynida talabnomalar tegishli ravishda bajarilmagan holatda, Bank sudga murojaat qilishga haqli.

7.3. Tomonlarning mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik chorralari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariiga muvofiq qo'llaniladi.

7.4. Qarz oluvchi tomonidan garov shartnomasi, sug'urta shartnomasi va garov predmetini sug'ortalash polisi o'z vaqtida rasmiylashtirilmaganligi va/yoki mazkur Shartnomaning 5-bo'limida nazarda tutilgan muddatlarda va shartlarda taqdim qilinmaganligi uchun Bank o'z vaqtida rasmiylashtirilmagan ta'minot summasining muddati o'tgan har bir kun uchun 0,1% miqdorida, biroq o'z muddatida rasmiylashtirilmagan ta'minot summasining 10% miqdoridan yuqori bo'lмаган miqdorda penya undirishga haqli.

7.5. Bank Qarz oluvchining qarz summalarini qaytarish maqsadida yillik qarz miqdorining yarmidan ko'p bo'lмаган summada foizlar, penyalar, jarima (neustoyka) hisoblab yozish va

undirishga, shuningdek Bank tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar, barcha zararlar va chiqimlar Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi to‘lanishini talab qilishga haqli.

**7.6.** Jarimaning (Neustoykaning) to‘lanishi Tomonlarni ularga yuklatilgan majburiyatlar bajarilishidan yoki qoida buzilishlar bartaraf etilishidan ozod qilmaydi.

## **8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

**8.1.** Mazkur Shartnoma tufayli yoki u bilan bog‘liq yuzaga keladigan barcha nizolarni Tomonlar ikki tomonlama muzokaralar orqali hal qilishga intiladilar. Tomonlar o‘zaro kelishuvga erishmagan holatda, ular o‘rtasidagi da‘volar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda da‘vogarning joylashgan manzili bo‘yicha umumiy yurisdiksiya sudida hal qilinadi.

## **9. FORS-MAJOR**

**9.1.** Tomonlar mazkur Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarining bajarilmaganligi yoki tegishlicha bajarilmaganligi mazkur Shartnoma tuzilganidan so‘ng Tomonlar na oldindan bilishlari, na oqilona choralar bilan bartaraf etishlari mumkin bo‘Imagan favqulodda xususiyatlari hodisalar natijasida yuzaga kelgan engib bo‘lmas kuch vaziyatlari (fors-major) yuz berishi oqibati ekanligini va Tomonlar o‘z vazifalarini tegishlicha ijro etish bo‘yicha ularga bog‘liq barcha choralar ko‘rilganligini isbotlagan holatda, ushbu majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki tegishlicha bajarilmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydilar. Bunday fors-major vaziyatlari, jumladan, quyidagilardan iborat: urush harakatlari, tabiat kuchlari ta’siri (zilzila, toshqin va h.k.), pandemiya, davlat organlari qarorlari.

**9.2.** Fors-major vaziyatlari boshlanganligi to‘g‘risida Tomonlar bir-birlarini fors-major vaziyatlari boshlangan paytdan e’tiboran 5 (besh) ish kuni mobaynida yozma shaklda xabardor qilishlari kerak.

**9.3.** Fors-major vaziyatlari yuzaga kelgan holatda, mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati bunday vaziyatlar va ularning oqibatlari amal qiladigan davr mobaynidagi muddatga o‘tkaziladi.

## **10. BOSHQA SHARTLAR**

**10.1.** Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan holatlarda Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.

**10.2.** Mazkur Shartnoma shartlarini o‘zgartirish, shu jumladan amal qilish muddatini uzaytirish Tomonlarning qo‘srimcha yozma kelishuviga asosan amalga oshiriladi, mazkur Shartnomaning 6.1.3-bandida belgilangan holatlar bundan mustasno. Qarz oluvchi tomonidan Bankka mazkur Shartnoma shartlarini o‘zgartirish yuzasidan murojaat qilingan holatda, Qarz oluvchi murojaat qilish paytida hech qanday to‘lov muddati o’tgan qarzdorlikka ega bo‘lmasligi va aktiv “Standart” tasnifi maqomiga ega bo‘lishi kerak.

**10.3.** Mazkur Shartnoma Tomonlar imzolagan kundan e’tiboran qonuniy kuchga kiradi va mazkur Shartnoma bo‘yicha barcha majburiyatlar to‘liq ijro etilgungacha amal qiladi.

**10.4.** Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi vafot etgan holatda, uning barcha huquqlari va majburiyatlari qonunchilikda belgilangan tartibda uning merosxo‘rlariga o‘tkaziladi.

**10.5.** Mazkur Shartnoma uch nusxada, bank, Qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchi uchun bittadan nusxada tuzilgan. Har uchchala nusxasi bir xil yuridik kuchga ega.

**10.6.** Ushbu orqali Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi bankka quyidagi harakatlarni amalga oshirish uchun qaytarilmaydigan, shartsiz huquq va rozilik beradi:

- a) Bank tomonidan «Kredit-axborot tahlil markazi» Kredit byurosiga va/yoki banklararo kredit byurosiga (Kredit byurosiga va garov reestriga) Shartnoma shartlariga doir ma'lumotlarning taqdim qilinishi;
- b) Qarz oluvchining mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlari ijrosiga tegishli masalalar bo‘yicha Bankka ma'lum bo‘lgan Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi, uning xotini (eri),

- shuningdek qarindoshlari, Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining ish beruvchilari telefon raqamlariga telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish, ularning manzillari (rekvizitlari) bo'yicha xatlar, elektron va SMS xabarlar yuborish;
- c) Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining mazkur Sharhnomasi bo'yicha majburiyatlarijosiga tegishli masalalar bo'yicha Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi, uning xotini (eri), shuningdek qarindoshlari, Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining ish beruvchilari bilan muzokaralar (uchrashuvlar) o'tkazish;
  - d) Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ish beruvchilaridan rasmiy talab qilish, ish beruvchilariga Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga kredit bo'yicha qarzni so'ndirish uchun tegishli pul mablag'larini (ish haqi, nafaqa va h.k.) yuborish talabnomasi bilan murojaat qilish.

Bunda, yuqorida qayd etilgan harakatlarning bank tomonidan amalga oshirilishi bank sirini oshkor qilish hisoblanmaydi.

## **11. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOLARI:**

**BANK**  
**«TENGE BANK» ATB**

**QARZ OLUVCHI**

**Manzili:**

---



---



---

**F.I.Sh.:**

---

**MFO:** \_\_\_\_\_ **STIR:** \_\_\_\_\_

**Manzili:**

---

**OKED:** \_\_\_\_\_

**Shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:**

**Tel.:** \_\_\_\_\_

Berilgan: \_\_\_\_\_ kim tomonidan: \_\_\_\_\_

**e-mail:** info@tengebank.uz

Berilgan sana: \_\_\_\_\_ y.

**Lavozimi:** \_\_\_\_\_

**STIR:** \_\_\_\_\_

**F.I.SH.:** \_\_\_\_\_

**Tel.:** +998 \_\_\_\_\_

**Imzo** \_\_\_\_\_

**e-mail:** \_\_\_\_\_ @ \_\_\_\_\_ .

Plastik \_\_\_\_\_ karta \_\_\_\_\_ raqami: \_\_\_\_\_

8600 \_\_\_\_\_

Sharhnomasi bilan tanishib chiqdim va roziman:

---

M.O'.

*Qarz oluvchining F.I.SH. va imzosi*

**BIRGALIKDA QARZ OLUVCHI**  
**F.I.SH.:**

---

**Manzili:**

**Shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:**

Berilgan: \_\_\_\_\_ kim tomonidan: \_\_\_\_\_

Berilgan sana: \_\_\_\_\_ y.

**STIR:** \_\_\_\_\_

**Tel.:** +998 \_\_\_\_\_

Plastik karta raqami:

8600\_\_\_\_\_

Shartnoma bilan tanishib chiqdim va roziman:

*Birgalikda qarz oluvchining F.I.SH. va imzosi*

---

20\_\_\_\_ yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi  
 «\_\_\_\_\_»-sonli Kredit shartnomasiga  
 1-sonli ilova.

**Kreditni / muddatli majburiyatni so‘ndirish jadvali**

t/r	So‘ndirish sanasi	Kredit qoldig‘i	Asosiy qarzni so‘ndirish jadvali	Foizlarni so‘ndirish prognoz jadvali	Jami so‘ndirish
1					
2					
3					
4					
5					
6					
7					
8					
9					
10					
...					
...					
...					
180					
<b>Jami:</b>					

**«BANK»**

Lavozimi \_\_\_\_\_  
 F.I.Sh. \_\_\_\_\_  
 Imzo \_\_\_\_\_  
 M.O‘.

**«QARZ OLUVCHI»**

F.I.Sh. \_\_\_\_\_  
 Imzo \_\_\_\_\_

**«BIRGALIKDA QARZ OLUVCHI»**

F.I.SH. \_\_\_\_\_  
 Imzo \_\_\_\_\_

Kreditni so‘ndirish uchun hisobvaraq raqami: \_\_\_\_\_  
 ID-kredit raqami: \_\_\_\_\_